

ANVAR OBIDJON HAYOTI VA IJODI

Abdumutaliyeva Orzigul Ismatillo qizi

*Farg'ona davlat universiteti pedagogika va psixologiya fakulteti
boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs 22.147 guruh talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoir, nosir, dramaturg, noshir hamda o'zbekning asl milliy shoiri Anvar Obidjon hayoti va ijodi haqidagi bilim va ko'nikmalarni yanada kengaytirish hamda o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni mustaqil fikrlashga, hamkorlikda ishlay olish qobiliyatlarini to'g'ri shakllantirishga oid qarashlar va metodik tavsiyalar, turli zamonaviy usullardan samarali foydalanish haqida so'z boradi. Maqolada "Tezyurar poyezd", "Mozaika" hamda "4+" usullaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Adabiy ta'lim, zamonaviy usullar, "Tezyurar poyezd", "Mozaika",

Ijodi o'ta serqirra esa-da, eng avvalo kichikintoylar adibi, bolalar olamining chinakam shaydosi sifatida dovrug' qozongan Anvar Obidjon 1947 yil 8 yanvarda (hujjat bo'yicha 25 yanvarda) Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanidagi Poloson qishlog'ida tug'ilgan. Aytishlaricha, bu qishloqqa qadimda mashhur bo'lgan Bolosog'un shahriga havas qilib nom berilgan, bora-bora, kishilar tilida Polosonga aylanib ketgan.

Yosh Anvar o'z qishlog'idagi 13-maktabning yettinchi-sakkizinchi sinflarida o'qib yurganida chekka mahallalar aholisiga tekin xizmat ko'rsatuvchi sayyor kinochiga shogird tushib, kasb o'rgandi, 9-sinfda Farg'ona shahridagi 11-maktabda kechki sinfda tahsil oldi, so'ng yana Oltiariqqa qaytib, 1-maktabning kechki sinfida o'qish bilan birga, paxta tayyorlash zavod-punktida traktorchilik qildi. Maktabni bitirgach, tog' orasiga joylashgan qirg'izovul "Rudnik-kon"da kon burg'ilovchisi bo'lib ishladi, Poloson qishloq ijroqo'mi qoshidagi kutubxonani boshqardi, Samarqand Moliya texnikumini tugalladi, 1966–1969 yillarda harbiy xizmatni o'tadi.

Armiyadan qaytib, avvaliga o'z qishlog'idagi kolxozda paxtachilik brigadasi tabelchi-hisobchisi, keyinchalik qo'shni qishloqdagi kolxozda Grajdan mudofaasi shtabi boshlig'i, klub mudiri bo'lib ishladi. Tuman gazetasiga muxbirlikka o'tgach, boshqatdan "Mehnat daftarchasi" ochdirib, hayotining ko'pdan orzulab yurgan yangi davrini top-toza sahifadan boshladi:

Anvar Obidjon faoliyati

1971–1976 yillarda Oltiariq tumanidagi "Paxta uchun" gazetasida adabiy xodim, bo'lim mudiri.

1977–1978 yillarda Toshkent Yog'-moy kombinatida bog'bon.

1979–1981 yillarda Farg'ona viloyati radiosida muharrir, katta muharrir.

1981–1986 yillarda Toshkentdagi "Yosh gvardiya" nashriyotida muharrir, bosh muharrir o'rinbosari.

1986–1987 yillarda "Yulduzcha" (hozirgi Cho'lpon) nashriyoti bosh muharriri.

1987–1988 yillarda "Yosh kuch" jurnalining shtatsiz xodimi.

1988–1989 yillarda "Mushtum" jurnalida bo'lim mudiri.

1989–1998 yillarda Cho'lpon nashriyotida bosh muharrir, direktor.

1998–2007 yillarda O'ztelekompaniyada katta muharrir.

Anvar Obidjon 1974–1979 yillar davomida hozirgi Toshkent Milliy universitetining jurnalistika fakultetida sirdan ta'lim oldi. U 1969 yilda turmush qurib, 1970 yilda Bahrom, 1972 yilda Bahodir, 1975 yilda Bobur, 1978 yilda Botir, 1980 yilda Bunyod ismli farzandlar ko'rdi. Mustaqillikkacha hukumat nishonlari, adabiy mukofotlar bilan taqdirlanmagan, 2014 yilda Koreyada o'tkazilgan Markaziy Osiyo va koreys xalqlari ertakchiligi mavzusidagi to'rt kunlik forumda ishtirok etganligini hisobga olmaganda, o'zi fuqaro bo'lmish mamlakatdan tashqariga sayohatga chiqmagan.

Xilma-xil janrlarda ijod qiluvchi adib sifatida tanilgan Anvar Obidjon bolalar uchun ham, kattalar uchun ham qator qissalar, she'rlar, dostonlar, hikoyalar, pyesalar bitgan. Hozirga qadar (2016) quyidagi kitoblari nashr etildi:

Anvar Obidjon kitoblari

- “Ona Yer”. (Bolalarga she’rlar. Toshkent, “Yosh gvardiya” nashryoti, 1974 yil, 3 bosma taboq, 48 bet, qirq besh ming nusxa).
- “Bahromning hikoyalari”. (Bolalarga she’rlar. Rangli. Tosh. “Yosh gvardiya” nashr. 1980 yil, 2 b/t, 32 bet, o’n ming nusxa).
- “Ey, Yorug’ dunyo...” (Bolalarga qissa. Tosh. G’afur G’ulom nashriyoti, 1983 yil, 5,5 b/t, 64 bet, oltmish ming nusxa).
- “Olovjon va uning do’stlari”. (Bolalarga qissa va hikoyalar. Tosh. “Yosh gvardiya” nashr. 1983 yil, 5 b/t, 112 bet, qirq ming nusxa).
- “Alamazon i yego pexota”. (Bolalarga rus tilida qissa va hikoyalar. T. “Yosh gvardiya” nashr. 1984 yil, 5,5 b/t, 128 bet, oltmish ming nusxa).
- “Bezgakshamol”. (Kattalarga hajviy g’azallar. Tosh. O’z KP MK (hozirgi “Sharq”) nashriyoti, 1985 yil, 2 b/t, 40 bet, qirq to’rt ming nusxa).
- “Ketmagil”. (Kattalarga lirik she’rlar. Tosh. G’afur G’ulom nashriyoti, 1985 yil, 3 b/t, 112 bet, besh ming nusxa).
- “Masxaraboz bola”. (Bolalarga she’r va dostonlar. Tosh. “Yosh gvardiya” nashr. 1986 yil, 4 b/t, 128 bet, o’n besh ming nusxa).
- “Akang qarag’ay Gulmat”. (Kattalarga qissa, hangoma, hajviy g’azallar. T. “Yosh gvardiya” nashr. 1987 yil, 10 b/t, 192 bet, qirq besh ming nusxa).
- “Juda qiziq voqea”. (Bolalarga she’rlar, dostonlar. Tosh. “Yulduzcha” nashr. 1987 yil, 10 b/t, 224 bet, yigirma ming nusxa).
- “Oltin yurakli Avtobola”. (Bolalarga qissa va hikoyalar. Tosh. “Yosh gvardiya” nashr. 1988 yil, 6 b/t, 144 bet, oltmish ming nusxa).
- “Dahshatli Meshpolvon”. (Bolalarga qissa va pyesalar. Rangli. Tosh. “Yulduzcha” nashr. 1989 yil, 13 b/t, 224 bet, yetmish besh ming nusxa).

Anvar Obidjonning dramaturgiyadagi faoliyati bolalarga atalgan “Qo’ng’iroqli yolg’onchi” nomli komediyasi 1983 yilda Toshkent Yosh tomoshabinlar teatrida sahnalashtirilishidan boshlandi. Shundan e’tiboran ushbu teatrdan hamda Farg’ona, Qarshi, Qo’qon, Guliston teatrlarida uning “Pahlavonning o’g’irlanishi”, “Topsang – hay-hay” (“Qorinbotir”), Samozvanets” (“Qo’ng’iroqli yolg’onchi”ning ruschasi), “Navro’z va Boychechak”, “To’tiqul”, “Alamazon”, “Meshpolvon” kabi pyesalari qo’yildi. “O’zbekfilm” kinostudiyasida bu adib ssenariylari asosida “Tilsimoy – g’aroyib qizaloq”, “Dahshatli Meshpolvon” komediyalari kino tasmasiga tushirilgan.

Shoir ijodida Ona tabiat va bolalar mavzusi. Anvar Obidjon asarlarining mavzu va mazmuni rang-barang, badiiy obraz yaratish usullari xilma-xil. Bolalar tabiatini nozik his etishi juda aniq seziladi. U o’z asarlarini qanday shaklda, qaysi janrda yozishidan qati nazar, bolalarning “qulgiga o’ch xalq” ekanligini hech qachon unutmaydi.

Anvar Obidjon she’riyatidagi eng ko’lamli mavzu Ona Tabiat va Bolalar. Shoir bu mavzuga ijodining boshlangich pallasidanoq qo’l urdi. Bu muhim va ahamiyatli masalani yuksak badiiy tarzda yoritish uchun jiddiy izlandi, vositalar, usullar, ohan-glar topishga intidtsi. Uning 80-yillarda ketma-ket e’lon qilin-gan "Dalalardan bolalarga", "Ajoyibxona", "Kulchalar", "Sizeshitmagan qo’shiklar", Botirvoyning kundaligi", Bulbulningcho’pchaklari", "Mening kolleksiyam", "Ignalarim chiroyli", "G’alati maktublar" singari she’riy turkumlari bu izlanishlarning samarasi bo’ldi. Mazkur turqumlar o’zbek bolalar adabiyotida yangilik, alohida hodisa sifatida tan olindi, yuqori baholandi. Ma’lumki, o’zbek bolalar adabiyotining ilk davrlaridayoq tabiat mavzusi yetakchilik qilgan. Agar bolalar uchun tabiat mavzuida maxsus yozilgan she’rlar yig’ilsa, ular ko’p jildlik kitoblarni tashkil etgan bo’lardi. Ushbu yo’nalishda o’quvchiga ma’qul keladigan, avvalgilariga nisbatan yaxshiroq asarlar yaratish, bu borada kashfiyot qilish nihoyatda murakkab bir yumush edi. Anvar Obidjon o’z turkumlarida ana shu boqiy mavzuni bolalar ongiga, dunyoqarashiga, ruhiyatiga mos tarzda badiiy talqin etishda o’zigaxoslik topa oldi. Uning she’rlarida tabiat turfa rang va ohanglarda namoyon bo’ladi

Nasriy asarlarida kulgi yaratish uslubi. Yozuvchining hikoyalari, sheʼrlarida boʻlganiday, tuzilishi va kompozitsion qurilishi jihatdan juda ixcham, nihoyatda yengil, qiziqarli oʻqilishi bilan kichikintoylarni tezda oʻziga maftun etadi. SHunisi xarakterliki, Anvar Obidjon sheʼrlaridagi ayrim qahramonlarining hayoti tasvirini oʻz hikoyalari ham davom ettiradi. Yaʼni ularda ham bosh qaxramon - hayvon va parrandalarning bolalari. Ular oʻz dunyoqarashlaridan kelib chiqib, hayoti, quvonch va tashvishlari haqida sodda, samimiy tarzda soʻzlab beradilar.

Jamiki jonzotlarning bolalari ham bu dunyoning har kunini oʻzlari uchun kashf etadilar. Masalan, "Mushukchaning hikoyasi" qahramoni yer yuzi tomdan koʻra oʻn besh marta, togʻoraga qaraganda kamida ming marta kattaligini "kashf etsa", och qoringa ari yutib yuborgan qurbaqa, uyqusirab turib ovqat yeyishning oqibati yomon boʻlishini "kashf etadi". Agar joʻja, dadasi Xoʻroz-ning qip-qizil tojidan, viqor bilan yurishidan zavqlansa, nodonfeʼl xoʻtikcha oʻzining akl va farosatiga qoyil qolib maqtanadi. Yozuvchining kichik-kichik ertak-hikoyalari hayvonlar insonlar singari xayol suradilar, fikrlaydilar, tevarak-atrofni kuzatadilar, hayratlanadilar. Ularning xatti-harakatlari bolalarni qiziqtiruvchi yengil yumor vositasida tasvirlanadi. Misol uchun "Joʻjaning hikoyasi" qahramoni soʻzlariga diqqat qilaylik. Bu joʻja "uka"lariga qaraganda bir daqiqa avval tuxumni yorib chiqqan: "Mendan keyin ukalarim ham birin-ketin tuxum pachaqlashga tushishdi. Yorugʻlikka chiqishgach, ular ham menga oʻxshab koʻzlarini ocholmay turishdi. Shumshayib oʻtirishganini koʻrib kulgang qistaydi". Hikoya qahramonlari oʻzlari haqida gapirar ekanlar, goʻyo oʻz shaxsiyatlarini tasdiqlab olayotgandek boʻladilar. Shuning uchun ham oʻquvchi ular timsolida aniq "shaxs"ni koʻrgandek boʻladi. Bunday hikoyalar kigobxon-bolada joʻshqin, xushchaqchaq kayfiyat uygʻotadi. U atrofga tiyranroq boqib, bu dunyoda oʻzidan-da kichiklar borligini bilib, ularni ehtiyot qilish, asrash-avaylash zarurligini xis etadi.

Oʻtgan asrning 80-yillari oxirlarida mamlakatimiz ijtimoiy hayotida roʻy bergan tub oʻzgarishlar bolalar adabiyotiga ham jiddiy taʼsirini oʻtkazmay qolmadi. Yozuvchilarimizning diqqat eʼtiboridan mutlaqo chetda qolib kelayotgan "oʻzlikni anglash" mavzulari oʻz aksini topa boshladi. Anvar Obidjonning "Oltin yurakli Avtobola", "Alamazon va uning piyodalari" va nihoyat "Meshpolvonning janglari" doston-qissasi ana shunday asarlar sirasiga kiradi.

Muallif "Oltin yurakli Avtobola" qissasida yaxshilik va yomonlik oʻrtasidagi muttasil kurashni oʻziga xos yangi yoʻnalishda tasvirlaydi. U yomonlikni shunchaki koʻrsatmaydi, balki uni keltirib chiqargan omillarni qidiradi va ularga chuqurroq nazar tashlashga intiladi. Shu maqsadda qissa davomida bir necha marta oʻtgan voqealarga murojaat etish usulidan foydalaniladi va qissaning markaziy qahramonlari Bekxoʻja va Kamolning bolalik yillariga nazar tashlaydi. Muallifning mahorati shundaki, u oʻtmishda boʻlib oʻtgan kichik-kichik voqealarni eslash orqali oʻquvchida har ikki bolaning tabiati, oʻsha davrdagi maktab tizimi haqida bir qadar kengroq tasavvur paydo qiladi.

Maktabda har ikki bola birday aʼlochi boʻlib oʻqiydi. Ammo ularning ijtimoiy kelib chiqishlari har xil. Kamol - oddiy fuqaroning oʻgʻli, Bekxoʻja — paxtachi boyning (boy Bekxoʻja 6 oylik paytida chet elga qochib ketgan) bolasi. Maʼlumki bolalarning maʼnaviy shakllanishida kattalarning alohida oʻrni bor. Agar kattalar ijtimoiy kelib chiqish haqidagi masalaga siyosiy urgʻu berishmasa, kimlargadir sinfiy dushmanlik koʻzi bilan qarash-masa, bola buni qaerdan biladih

Bolalik yillari voqealari tasvirida muallifning Bekxoʻjaga nisbatan iliq mehrini payqash mumkin. U ayniqsa, Bekxoʻjaning tarixni sevishi, ajdodlarimiz qahramonliklaridan faxrlanishi, ularni qadrlash kabi xususiyatlarini maʼqullaydi. Bekxoʻja tarix darsini oʻqimagan, uni tushunmagan tengdoshlaridan gʻazablanadi. Xususan, Muqannani Torobiy bilan almashtirgan Kamolni jiddiy tanqid qiladi va uni "kallavaram" deydi. Bunday haqoratga oʻzini noloyiq deb bilgan Kamol esa uning eng nozik joyini chimchilab oʻtadi: "Ogʻzingni yumib oʻtir, sarqit!".

Muallif bu voqeani bekorga eslamaydi. U bolaning nozik qalbi bunday xaqorat, kamsitish va doshnomlardan alamli chandiqlarga toʻlib ketganligini, natijada u nihoyatda alamzada boʻlib oʻsganligini tasdiqlash uchun keltiradi. Muallif asar tagmatnida bolani shaxs sifatida sindirishga xizmat qiluvchi bunday shafqatsizliklar haqida oʻylab koʻrishga, mushohada qilishga undaydi.

Adib Bekxo`janing tomir-tomiriga singib ketgan munofiqlik ildizlarini ham uning o`quvchilik yillaridan izlaydi. Sobiq sho`rolar vaqqidagi tarbiya tizimining buyruqbozlikka, yolg'on va soxtagarchilikka, baho ketidan quvishga asoslanganligini qoralaydi. Insonning ma'naviy huquqlarini buzish avj olganligi uchun maktablardan surbet, munofiq, xudbin, loqayd kimsalarning ko'plab yetishib chiqishiga sabab bo'layotganini ta'kidlaydi. Muallif asarning quyidagi kichik voqeasidan ana shu holatlarni ko'rsata olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Ahmedov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev. (2017) Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. Toshkent: "Ma'naviyat",
2. "Umumta'lim fanlari metodikasi" jurnali, 2018 1-, 2-, 3-, 4-sonlar
3. Jamoliddin Nur. (2021) Adabiyotdan ochiq darslar. - Toshkent: "Muharrir"
4. Abdullayeva, O. O. (2021). Abay ijodini o'rganishda savol va topshiriqlar ustida ishlash. Academic research in educational sciences, 2(3), 4-9.
5. Abdullayeva, O. O. (2021). Ibroyim Yusupov ijodi asosida o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'ularini o'stirish. Academic research in educational sciences, 2(3), 176-180.
6. Botirboyev, F. P., Abdullayeva, O. O., & Shermatova, U. S. (2021). O'ljas Sulaymonov ijodini o'rganishda savol va topshiriqlar ustida ishlash. Academic research in educational sciences, 2(4), 2013-2018. <https://doi.org/10.24411/2181-1385-2021-00834>
7. Abdullayeva, O. (2021) Badiiy asarlarning inson ruhivati ta'siri. Scientific progress, 1(5), (pp. 272-275)
8. Abdullayeva, O. O. Q. (2021). O'zbek tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni. Scientific progress, 1(5)
9. Abdullayeva, O. O. Q. (2021). ADABIYOT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. Студенческий вестник, 16(161)
10. Abdullayeva, O. O. Q. (2021). OTLARNING BIRLIK VA KO'PLIKDA QO'LLANILISHINI O'RGATISH. Scientific progress, 2(1)
11. Abdullayeva, O. O. Q. (2021). XALQARO TADQIQOTLAR VA ULARNING ADABIYOT FANIDA TUTGAN O'RNI. Scientific progress, 2(1)
12. Ozoda Odiljon qizi Abdullayeva. (2021) O'lmas Umarbekov hayoti va ijodini o'rganishda interfaol metodlar bilan ishlash. Science and education, 2(5)
13. Ozoda Odiljon qizi Abdullayeva. (2021) Saida Zunnunova hayoti va ijodini o'rgatishning samarali usullari. Science and education, 2(5)
14. Ozoda Odiljon qizi Abdullayeva. (2021) Said Ahmad hikoyalarini o'rganishda interaktiv metodlar. Science and education, 2(6)
15. Ozoda Odiljon qizi Abdullayeva. (2021) Umumiy o'rta ta'limda ertak o'qitish metodikasi. Scientific progress, 2(2)
16. Ozoda Odiljon qizi Abdullayeva. (2021) Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asarini o'qitishda interaktiv usullar. Scientific progress, 2(2)